



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Farg'ona viloyatida
kichik tadbirkorlik**

2022-yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, %da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **67,0** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,7** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **4,4** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,8** foizga kam demakdir.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo

44,0 %

Sanoat

22,1 %

Qurilish

6,8 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

6,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1 934** ta, sanoatda **971** ta, qurilishda **299** ta, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **282** ta, boshqa turdag'i xizmatlarda **319** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 96,2



Sanoat 38,6



Qurilish 89,0



Investitsiya 70,9



Savdo 87,5



Xizmatlar 63,5



Eksport 42,7



Import 65,7



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

45 564




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

4 392

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, %da



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da


2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – 14,5 %, Qo'qon shahri – 9,1 %, Toshloq tumani – 6,0 %, Marg'ilon shahri – 5,9 %, Dang'ara tumani – 5,4 %, Oltiariq tumani – 5,4 %, Buvayda tumani - 5,0 % hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2021- y. yanvar-iyun ■ 2022- y. yanvar-iyun

Ma'lumot uchun: 2022–yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

1934 ta

Sanoatda

971 ta

Qurilishda

299 ta

Qishloq,o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

282 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,7 birlikni tashkil etdi.




Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 24,0 birlik, Quvasoy shahrida 21,2 birlik, Qo'qon shahrida 19,7 birlik, Marg'ilon shahrida 17,6 birlik, So'x tumanida 16,3 birlikni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),
2022- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra***

Eng yuqori ko'rsatkich

Farg'ona shahrida - 24,0 birlik.


O'rtacha ko'rsatkich

Uchko'prik tumanida- 13,7 birlik.

Past ko'rsatkich

Beshariq tumanida – 8,9 birlik.

2022- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida **24,0** birlik, Quvasoy shahrida **21,2** birlik, Qo'qon shahrida **19,7** birlik, Marg'ilon shahrida **17,6** birlik, So'x tumanida **16,3** birlik, Dang'ara tumanı **15,3** birlik, Quva tumanida **15,2** birlik, Furqat tumanida esa **15,0** birlik ni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 67,0 %ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-iyunida 69,2 %).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022-yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 178,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 42,7 %ini tashkil etdi.




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2022 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bag'dod tumanida – 100,0 %, Beshariq tumanida – 100,0 %, So'x tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida 100,0 %, Uchko'prik tumanida – 98,8 %ni, Oltiariq tumanida – 93,7 % va Marg'ilon shaharlarda – 90,3 %ni, eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida – 9,2 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi So'xt tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida–100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 %, Buvayda tumanida– 99,9 %, Marg'ilon shahrida– 99,8 % va Dang'ara tumanida 99,8 %. Eng past ko'rsatkich Farg'ona shahrida – 19,7 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **415,9** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **65,7 %**ini tashkil etdi.




2022 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 365,6** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (801,0 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (731,7 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (657,0 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (496,4 mlrd. so'm) va Beshariq tumani (395,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (42,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022-yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 38,6 %ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini So'x tumani (100,0 %), Beshariq tumani (100,0%), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahri (97,1 %), Furqat tumani (93,1 %), Buvayda tumani (84,5%), Uchko'prik tumani (83,4%), Bag'dod tumani (76,9%), Rishton tumani (66,1%) va Dang'ara tumanlari (55,4%)ni tashkil etdi. Toshloq tumanida esa (12,1%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 424,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **87,5** %ini tashkil etib. 2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **103,0** %ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri (1916,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (1898,0 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (1612,4 mlrd. so'm), Quva tumani (418,6 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (375,0 mlrd. so'm) va Oltiariq tumanlarida (309,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 514,9** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,0** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,1** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (1052,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (407,4 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (273,5 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (266,1 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (180,5 mlrd. so'm), Toshloq tumani (142,4 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (140,2 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (130,5 mlrd. so'm) hamda (100,9 mlrd. so'm) O'zbekiston tumanlarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 486,7 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 63,5 %ini tashkil qildi va oʼsish surʼati 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan **106,5 %ni tashkil qildi.****


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp xizmatlar hajmi Farg’ona shahri (1 571,1 mlrd. soʼm), Qoʼqon shahri (1 170,6 mlrd. soʼm), Margʼilon shahri (774,5 mlrd.soʼm), Oltiariq tumani (306,0 mlrd. soʼm), Uchkoʼprik tumani (255,7 mlrd. soʼm), Farg’ona tumani (226,5 mlrd. soʼm) va (221,1 mlrd. soʼm) Toshloq tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


**2022- yilning yanvar-iyunida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da:**




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,2 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 52,6 %ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,3 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,6 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 %ni tashkil qildi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1615 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 686 (42,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni joriy davrda qulay deb baholadi. 836 (51,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 93 (5,7%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2,9 % (46 ta), sanoatda – 21,6 % (349 ta), qurilishda – 10,2 % (165 ta), savdoda – 37,7 % (610 ta), xizmatlar sohasida – 27,6 % (445 ta) ni tashkil etdi.


2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da






Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (285 ta), Qo'qon shahri (205 ta), Marg'ilon shahri (147 ta), Oltiariq tumani (92 ta), Uchko'prik (78 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning II chorak kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2022- yilning II chorak kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 45,4 %ni, xizmatda 44,8 %ni, savdoda 43,3 %ni va sanoatda 38,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 63,1 %ni, sanoatda 53,9 %ni, savdoda 53,0 %ni, qurilishda 48,5 %ni tashkil etdi.

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 48,5 %ni, savdoda 47,5 %ni, xizmatlar sohasida 46,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 63,0 %ni, sanoatda 50,1 %ni, savdoda 48,7 %ni, xizmatlar sohasida 47,4 %ni, qurilishda 46,7 %ni tashkil etdi.

